

## **TALABALARNI TO'G'RI KASB TANLASHGA YO'NALТИРИШ ГАЙД СИФАТИНИ ОШИРИШНИНГ АСОСИЙ УСТУНИ**

*Qurbanova Baxtixon Qo'chqarbayevna*

*FarDU pedagogika fanlari bo'yicha fan doktori, dotsent*

*Xatamova Durdonaxon*

*FarDU magistranti*

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada har qanday kasb egasi o'z sohasining yetuk mutaxasisi bo'lishu uchun qanday kasbiy va shaxsiy talablarni bilishi lozimligi haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, hayot sifatini oshirishda kasbiy qoniqish eng ustuvor vazifa ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** talaba, faoliyat, kasbiy maslaxat, kasbdagi kreativlik, kasbiy moslashish, zamonaviy kasblar.

### **Kirish**

Bugungi kunning asosiy islohotlaridan biri yoshlarni kasbiy mahoratlarini shakllantirish va kelajak poydevorlarini mustahkamlashdir. Bu borada yurtboshimiz ham "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" <sup>1</sup> deb o'tadi o'zining asarlarida.

Buyuk davlatni barpo etish uchun mamlakatda yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash va ularni jahon standartlari darajasiga ko'tarmoq lozim. Yangi innovatsiyalarning bugungi kun talabiga javob berishi uchun keng saviyali, o'z kasbining yetuk mutaxxasisini shakllantirish lozim. Insonlarning fikricha kasb tanlash ijtimoiy ahamiyat kasb etadi lekin, buning zaminida individual shaxs turadi. Shu sababli ham har bir kasb tanlovchi o'z qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olishi kerak.

**Kasbning mohiyati.** Kasbning asosiy mazmunini tushunmaslik kasbiga bo'lgan munosabatining salbiylashishiga va insonni loqaydlashishiga olib keladi. Bunday holatlarni oldini olish uchun quyidagi asosiy ko'nikmalarga ahamiyat berish kerak.

- Talabalar o'qish davomida fanlarni hayot bilan bog'lashi;
- Ma'lumotlarni o'zlashtirishda shaxsiy fikr vamulohazalarni ham inobatga olishi;
- Kelgusi jarayonlar uchun zamin yaratish;
- Kasbiy rejani shakllantirish va uni rivojlantirish;

<sup>1</sup>"Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" Toshkent- "O'zbekiston"-2016

- O'quv- uslubiy qiyinchiliklarni o'z yechimlarini toppish;
- Kasbiy faoliyat hayotning muhim qismi ekanligini inobatga olish.

**Kasbiy saralash-** shiddat bilan rivojlanayotgan mamlakatimizda zamonaviy kasblar ham o'z o'rnini tobora mustahkamlab bormoqda. Bundan ko'rinish turibdiki, har bir yosh avlod o'zi uchun karakli bo'lган kasbni tanlab olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Kasb tanlash jarayonida saralash bosqichi ham mavjud bo'lib, bunda o'z ustida ko'proq ishlay oladigan fidoiy yoshlar tanlab olinadi.

**Kasbiy moslashish-** yosh kasb egalarining kasbiy faoliyatiga ko'nikishi eng muhim omil hisoblanadi. Chunki, kasbini takomillashtirish va yangi innovatsiyalar joriy etishi uchun kasb egalari kasbiy jarayonlarini tushunishi kerrak. Kasb mohiyatiga kirishish ushbu kasbni rivojlanishi uchun eng muhim qadamdir.

**Kasblar bilan tanishishning asosiy ahamiyati.** Shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda yangidan yangi kasblar ko'paymoqda. Bularning barchasini talabalarga tanishtirish ularning fikrlarini o'rganish mamlakat kelajagi uchun ustuvor vazifadir. Kasblar bilan tanishish jarayonida talabalarga tanlangan kasbning mashaqqatlari va foydalari haqida aytib o'tish kerak. Talabalarni qiziqtirish va ularni ma'lum kasbga yo'naltirishda tanlangan kasb orqali bo'ladigan foydalarni inobatga olish lozim. Bu o'rinda talabalarga zamonaviy kasblar haqida ham ma'lumotlar berib o'tish kerak.

Zamonaviy kasblar inson hayotini yaxshilash, o'z ustida ko'proq izlanishga yordam beradi. Hozirgi kunda barchaning diqqat markazida bo'lган kasblar quyidagilarni o'z ichiga oladi: loyiha menejeri, buxgalter, dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchi, virtual haqiqat dizayneri, marketing bo'yicha mutaxassis va boshqalar. Talabalarga ushbu kasb turlarini o'rganishi uchun yurtimizda keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Zamonaviy kasblarga yo'naltirish uchun oliygohlarda tashkil etilgan kompyuterxonalar va ulardagi qulayliklar barchamizga ma'lum. Ta'lim olayotgan yo'nalishidan tashqari o'z qiziqishlarini inobatga olgan holda qo'shimcha kasblar bilan ta'minlanish barcha uchun birdek foydali.

**Kasbdagi kreativlik.** Zamonaviy dunyoning innovatsiyalariga moslashishi, yosh avlodni jamiyat hayotida tayyorlash, yangiliklar yaratish oliy ta'lim muassasasi pedagogining muhim kasbiy vazifasi hisoblanadi. Kreativlik ta'lim jarayonini takomillashtirishni o'zida mujassamlashtirib, kreativ ta'lim jarayonini qurish, ta'lim texnologiyalarida ijodiy salohiyatni takomillashtirishni o'z ichiga qamrab oladi. Har bir kasb egasi kreativ bo'lsagina, tanlangan kasbni rivojlantira oladi. ayniqsa bu pedagoglar uchun zarurdir. har bir dars uchun kreativ metodlar va didaktik o'yinlar bilan o'quvchilarni jalb qila olish yoshlar kelajagi uchun muhimdir. Barcha kasb sohalarida kasbga bo'lган muhabbat uni qay darajada takomillashtirish bilan bog'liq.

### Xulosa

Demakki, talabalarni to'g'ri kasbga yo'naltirish ularni kasbiy faoliyatidan va shaxsiy hayotidan qanoatlanishga yordam beradi. To'g'ri tanlangan kasb rivojlanadi,

takomillashadi va inson hayotida o’z o’rnini egallaydi. Umuman yoshlarni kasbga yo’llash jarayonida ularning individual xususiyatlari va qiziqishlarini layoqat va qobilyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiq bo’ladi. Yoshlarni o’z vaqtiga to’g’ri kasbga yo’naltirish sohaning bardavomligining asosi hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Shavkat Mirziyoyev “Erkin va farovon demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” Toshkent- “O’zbekisyon”-2016
2. Begmatov A., Quraev M. Ijtimoiy pedagogikaning dolzarb masalalari. T.: OPI to‘plami.
3. Ne’matova Flora Baxtiyorovna “Ijtimoiy pedagogika” “Fan va ta’lim” nashriyoti Buxoro-2022
4. Qodirov B. Qodirov K. Kasbiy tashxis metodikalari to’plami. Amaliyotchi psixologlar uchun metodik qo’llanma. T 2003-yil
5. X.Ibragimov, Sh.Abdullayeva. Pedagogika nazariyasি. Toshkent. 2008